

**ISSN 2181-8258**

**DOI prefiksi: 10.69691**

**ResearchBib IMPAKT FACTOR: 9,347**

## **Journal THE LIGHT OF CIVILIZATION**

Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine

# **TAMADDUN NURI**

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal



**2026-yil**  
**4-son (79)**



Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

**MUASSISLAR:** Beruniy tuman hokimligi

"Tafakkur-Tamaddun" OOO

"Beruniy avlodlari" jamoat fondi

**HAMKORLARIMIZ:**

O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Urganch davlat universiteti

**TAHRIR HAY'ATI:**

**BOSH MUHARRIR:**

Munavvara KURBANBAYEVA

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Anvar ALLAMBERGENOV, fil.f.f.d (PhD)

**TEXNIK MUHARRIR:**

Islombek ABDIKHAKIMOV, y.f.f.d (PhD)

**BO'LIM MUHARRIRI:**

Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.

Qahramon QURONBOYEV, s.f.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)

Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD), (Hindiston)

Azizulloh AROL, fil.f.f.d (PhD), (AQSH)

Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)

Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)

Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayılov, t. f.d, prof., (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Shoira NURULLAYEVA, t.f.n., dots.

Indira JOLLIBEKOVA, t.f.d., (PhD)

Mamlakat JUMANIYAZOVA, t.f.n., dots.

Konul Bunyadzoda, falsafa fanlari doktoru, (Ozarbayjon)

Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.

Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)

Mangubek O'RAZMETOV, fal.f.d., (PhD)

Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, fil.f.d., prof., (Ozarbayjon)

Azamat PRIMOV, fil.f.d., (DSc), prof.

Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n., (Rossiya Federatsiyasi)

Shukurjon Norbayeva, fil.f.d., (DSc)

Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n., dots., (PhD)

Qabil MAMBETOV, fil.f.f.d., (PhD)

Vahob RAHMONOV, fil.f.n., dots.

Doniyor YULDASHEV, fil.f.d (DSc)

Farrux Abbas o'g'lu Rustamov, p.f.d, prof. (Ozarbayjon)

Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d., prof.

Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, s.f.d., (DSc), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Rana Hamid qızı Qadirova, psixol.f.d., prof. (Ozarbayjon)

Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilafroz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**

Sirojiddin SAYYID

Muhammad ALI

Kengesboy KARIMOV

Iqbol MIRZO

Qurbon SHONIYOZOV

O'rozboy ABDURAHMONOV

Murotboy JUMANOV

**Adabiy maslahatchi:**

Guliston MATYOQUBOVA

**Rassom:**

Alibek ABDURAHMONOV

**Sahifalovchi-bezovchi:** G'iyosiddin O'NAROV

**Manzilimiz:** Qoraqalpog'iston Respublikasi,

Beruniy tumani.

Web-sayt: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz>

e-mail: [tamaddunnuri1@gmail.com](mailto:tamaddunnuri1@gmail.com)

Telegram kanali: <https://t.me/tamaddunnuri>

Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

Qog'oz bichimi 60x84 ¼. Nashriyot hisob tabog'i 28.

Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ

bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.

Bosishga 2026-yil 30-aprelda ruxsat etildi.

Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 28-uy.

2026-yil 4-son 2-qism (79).

**Ushbu son** "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №35.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri" dan olindi deb izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.



"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri" jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va 10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.



10.69691 DOI



INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

ISSN-2181-8258



Impakt faktor-9.347

**SLIB.UZ**

BIZNI IJTIMOYIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:





Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine

**Founders:** Beruniy District Municipality

"Tafakkur-Tamaddun" OOO

Public Foundation "Descendants of Berunius"

**Our colleagues:** Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Karakalpakstan division

Karakalpak State University, Urgench State University

**EDITORIAL BOARD:**

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Munavvara KURBANBAEVA

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Anvar ALLAMBERGENOV

**TECHNICAL EDITOR:**

Islombek ABDIKHAKIMOV

**SECTION EDITOR:**

Mukaddas KURBANBAEVA

Akmal SAIDOV, y.sc.d., prof., Acad.

Qakhraman QURANBAYEV, s.sc.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)

Roman GOPAL, phil.sc.n., (PhD) (India)

Azizulloh AROL, phil.sc.n., (PhD) (USA)

Almagul BAYRIEVA, s.sc.d., (DSc)

Zuhra REYMOVA, y.sc.d., (DSc)

Karligash UMAROVA, y.sc.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayilov, ist. sc.d, prof. (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAEV, ist.sc.d, dots.

Makset KARLIBAEV, t.f.d., k.i.x.

Kazimbek TUKHTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Shoira NURULLAEVA, c. of h. sciences, Assoc. Prof.

Indira JOLLIBEKOVA, Doctor of Philosophy (PhD) in History

Mamlakat JUMANIYAZOVA, c. of h. sciences, Assoc. Prof.

Konul Bunyadzoda, Doctor of Philosophy,

(AMEA) Corresponding Member (Ozarbayjon)

Bakhtiyar KARIMOV, phiosl.sc.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, philos.sc.d.

Odilbek RADJPOV, philos.sc.d., (PhD)

Mangubek URAZMETOV, philos.sc.d., (PhD)

Zarifboy DOSIMOV, Phil.sc.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, Phil. f.sc.d., prof. (Ozarbayjon)

Azamat PRIMOV, Phil. sc.d., (DSc), professor

Nasibullina Nurida Shaydullovna, can. of phil ( Rossiya)

Shukurjon Norbayeva, Phil. sc.d., (DSc)

Bekposhsha RAKHIMOVA, can. of phil.sc, dots (PhD)

Qabil MAMBETOV, phil.sc.n. (PhD)

Vahab Rakhmonov, f.sc.n., dots.

Doniyor YULDASHEV, Phil. sc.d., (DSc)

Farrux Abbas oğlu Rüstamov, p.sc.d, prof., (Ozarbayjon)

Kazakboy YOLDASHEV, p.sc.d., prof.

Qakhraman IBADULLAEV, p.sc.d., (DSc)

Masharib ABDULLAEV, of art.sc.c., (DSc), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Rana Hamid qızı Qadirova, Psychol.sc.d., prof.(Ozarbayjon)

Nargis ATABAEVA, Psychol.sc.d., (DSc)

Dilafuz QARSHIEVA, Psychol.scd., (DSc)

**COMMUNITY COUNCIL:**

Sirojiddin SAYID

Muhammad Ali

Kengesboy KARIMOV

Iqbal MIRZA

Kurban SHONIAZOV

Orozboy ABDURAHMANOV

Muratboy JUMANOV

**Literary Advisor:**

Gulistan MATYOQUBOVA

**Painter:**

Alibek ABDURAHMANOV

**Page editor:**

Ghiyaziddin O'NAROV

Our address: Republic of Karakalpakstan,

Beruni district.

Website: <https://tamaddunnuri.uz>

e-mail: [tamaddunnuri1@gmail.com](mailto:tamaddunnuri1@gmail.com).

Telegram channel: <https://t.me/tamaddunnuri>

Phone: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40

The editorial board is an official member of Crossref DOI and has the prefix 10.69691 DOI. Each publication and scientific article is assigned an individual Crossref DOI number.

Paper size 60x84 ¼. Publisher's scoreboard 28. The index is 960.

It was published in the printing house of "ADAD PLUS" LLC. The number is 300 pieces.

Chilonzor street, 28, Tashkent city. 2026, No.4, 2. (79).

This issue was paged on the computer of "Tamaddun Nuri" editorial office. Order #35. When copying from the magazine, it must be noted that it was taken from "Tamaddun Nuri". The authors are responsible for the accuracy of the information in the text and advertisements. Manuscripts received by the editors will be edited, not reviewed, and not returned to the author.



"Tamaddun nuri " magazine is indexed in the Google Scholar base. This helps to increase the scientific prestige of the Journal and to promote the scientific work of the authors on a large scale.

Through Google Scholar, researchers and scientists will be able to search and link articles published in the Journal "Tamaddun nuri".



Crossref DOI-10.69691



ISSN-2181-8258



Impakt faktor-9.347



BIZNI IJTIMOYIY TARMOQLARDA QUUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:



## “ALPOMISH” DOSTONIDA ONOMASTIK LEKSIKANIING IFODALANISHI

*Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna,  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, filologiya  
fanlari doktori (DSc)*

## EXPRESSION OF ONOMASTIC LEXICON IN THE EPIC “ALPOMISH”

*Askarova Shakhnoza Kamolidinovna  
Associate Professor, Tashkent State University of Oriental Studies,  
Doctor of Philological Sciences (DSc)*



*shakhnozaaskarova2@  
gmail.com  
Orcid: 0009-0006-  
6892-4324*

## ВЫРАЖЕНИЕ ОНОМАСТИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ В ЭПОСЕ «АЛПОМЫШ»

*Аскарова Шахноза Камолитдиновна,  
доцент Ташкентского государственного университета  
востоковедения, доктор филологических наук (DSc)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bugunning dolzarb masalalaridan – onomastik birliklar (antroponim, toponim), ularning o‘zaro munosabatlari, o‘zbek xalqining milliy urf-odat, an‘analarini mujassamlagan nodir asar “Alpomish”ning inglizcha tarjimasidagi ba’zi misralarning lingvomadaniy jihatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, asarda uchraydigan atoqli otlarning semantik yuklamasi, ularning tarixiy va madaniy asoslari hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi. Onomastik birliklarning asl ma’nosini saqlab qolish, ularni boshqa til muhitida to‘g‘ri ifodalash masalalari alohida e’tiborga olinadi.

**Kalit so‘zlar:** onomastik leksika, tarjimashunoslik, toponim, antroponim, leksik birliklar, mulohaza.

**Abstract:** This article examines one of the pressing issues of today onomastic units (anthroponyms and toponyms), their interrelations, as well as the linguocultural features of certain lines in the English translation of the unique work “Alpomish”, which embodies the national customs and traditions of the Uzbek people. It also analyzes the semantic load of proper names found in the work, their historical and cultural foundations, and the problems that arise in the process of translation. Special attention is given to the issues of preserving the original meaning of onomastic units and accurately rendering them in another linguistic environment.

**Key words:** onomastic lexicon, translation studies, toponym, anthroponym, lexical units, reflection.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются актуальные вопросы современности ономастические единицы (антропонимы и топонимы), их взаимосвязь, а также лингвокультурные особенности некоторых строк английского перевода уникального произведения «Алпомыш», в котором воплощены национальные обычаи и традиции узбекского народа. Также анализируется семантическая нагрузка встречающихся в произведении собственных имён, их историческая и культурная основа, а также проблемы, возникающие в процессе перевода. Особое внимание уделяется вопросам сохранения исходного значения ономастических единиц и их корректного выражения в иной языковой среде.

**Ключевые слова:** ономастическая лексика, переводоведение, топоним, антропоним, лексические единицы, размышление.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).** asosan tadqiq qilish undagi tilni statik emas, balki dinamik hodisa sifatida anglashga yordam beradi.  
“Alpomish” asarini matn tilshunosligi tamoyillariga

Bu doston jahon ahamiyatiga ega bo'lgan noyob badiiy, ensiklopedik va ilmiy qadriyat hisoblanadi. Chunki, asar bir xalqning ezgu niyatlarinigina aks ettirib qolmay, butun insoniyatning turmush tarzini aks ettiruvchi ona yurtga sadoqat tuyg'usi, sof insoniy muhabbat, insonparvarlik va bag'rikenglik, ozod hamda farovon turmush, hurriyat g'oyalari bilan sug'orilgan. Bugun bu dostonni "Kishilik jamiyatining baxtli bolaligi" degan yuksak ta'rifga sazovor bo'lgan "Iliada" kabi jahon eposining mumtoz namunalaridan biridir, deb aytish mumkin". Bu nodir asarning ildizlari juda qadim zamonlarga borib taqalishi mana shu ma'lumotlardan ham ma'lumdir. "Alpomish izidan" ilmiy ekspeditsiyaning ilk yo'nalishida yana bir haqiqat namoyon bo'ldi. Bu – buyuk epos "Alpomish"siz o'zbek ma'naviyati kemtik, xalqimiz mafkurasi sayoz, milliy g'ururimiz va vijdonimiz yetarli bo'lmaydi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** "Alpomish"siz xalqimizning o'ziga xos qadriyatlari, milliy va umumbashariy fazilatlarini shukuhsiz bo'lib qoladi". Darhaqiqat, xalqimiz hayotiga oid qanday udum bo'lsa, barchasini shu asarda uchratish mumkin. "Mazkur doston lingvistik jihatdan o'zbek tilining butun boyligi va rangdorligini aks ettirib, o'zbek xalqi tilining shirali, ixcham va o'z hayotini ifoda qilish uchun mukammal, boy ekanini ham ko'rsatadi". "Alpomish" dostonining rus tiliga tarjima qilinishi, dastlab ilmiy-ommabop maqolalar shaklida, so'ngra esa to'liq nashr sifatida e'lon qilinishi, uning xalqaro miqyosda tanilishiga asos bo'ldi. Bu holat nafaqat o'zbek epik merosining jahon ilmiy hamjamiyatiga taqdim etilishiga xizmat qildi, balki xalq og'zaki ijodining turli millatlar va madaniy kontekstlarda baholanishiga ham turtki berdi. Tarjimalar orqali dostonning estetik, etnografik, sotsiologik va tarixiy qatlamlari kengroq auditoriyalar tomonidan tahlil etilishi mumkin bo'ldi[1].

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Doston – xalq tilining boyligini, jozibasini, ichki imkoniyatini – butun bo'y-bastini ko'z-ko'z qilgan shoh asar. N.Mahmudov ta'kidlaganidek, "Alpomish" dostonida o'zbek xalqining ko'hna va hamisha navqiron tili o'zining butun salohiyati bilan jilvalanadi". Ma'lumki, bu asar juda ko'p turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan.

Ba'zi tadqiqotchilar uning uch versiya – talqini bor deyishsa, ba'zilar esa to'rt talqinga ega, deb ta'kidlashadi. Birinchisi – "Qo'ng'iro't" talqini. Bunga o'zbek, qozoq, qoraqalpoq turkiylari o'rtasida tarqalgan va mukammal holga kelgan "Alpomish", "Alpamis" nomlaridagi dostonlar kiradi. Ikkinchisi – "O'g'iz" talqini. Bunga turkiy xalqlar, xususan, ozar, turkman, turk, o'zbek va boshqa xalqlar orasida yashab kelayotgan katta-kichik asarlar, xususan, "Dada Qo'rqut dostoni", uning tarkibidagi "Bamsik Bayrak" dostonidir. Uchinchisi – "Qipchoq" talqini bo'lib, bunga tatar, boshqird, abxaz va ularga yaqin boshqa xalqlar ijodidagi "Barchin Suluu" kabi asarlar mansub. Tog'li Oltoyda tarqalgan "Alip-Manash" dostonini esa to'rtinchi – "Oltoy" talqiniga kiritish mumkin". Bundan ko'rinadiki, "Alpomish" – umumturkiy asar, uning tarqalish areali keng: barcha turkiy til va lahjalarda yaratilgan, yoyilgan. Doston turkiy tilli xalqlarda, jumladan, o'zbeklarda "Alpomish", qozoqlarda "Alpamis batir", qoraqalpoqlarda "Alpamis", oltoyliklarda "Alp Manash", boshqirdlarda "Alpamsha va Barsin Hillu", qozon tatarlarida "Alpamsha" nomlari bilan keng tarqalgan va hamda o'zonlar, jirovlar, baxshilar, sesenlar, qaychilar, jirchilar, shoirlar tomonidan alohida bir ehtirom bilan kuylab kelingan. Janubiy O'zbekiston hududida "Alpomish" bir qancha mustaqil dostonlardan tashkil topgan mukammal biografik-nasliy turkum ekanligi "kashf" etildi. Vaholanki, biz shu kunga qadar "Alpomish" va uning farzandi Yodgor haqidagi ikki dostonni hamda ularning variantlarinigina bilardik, xolos. Ana shu turkumni tashkil etgan "Beva Barchin yoxud Barchin Beka" (aytuvchi: Qahhor baxshi Qodir o'g'li), "Yodgor" (ikki variantda, aytuvchilar: Chori baxshi Umir o'g'li, Qahhor baxshi), "Yo'lichibek (yoxud Xudoyor)" (Alpomishning ikkinchi o'g'li haqida, aytuvchi: Chori baxshi Umir o'g'li), "Shomurod" (Yodgorning qaynotasi, aytuvchi: Chori baxshi Umir o'g'li) kabi dostonlar borligi ilk bor aniqlanib, qalamga olindi va fanga olib kirildi"[2].

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Dostondagi obrazlar etnik mansubligini ifodalaydigan *qo'ng'iro't, qalmoq* etnonimlari faol qo'llangan. Ana shu etnonimlarning takror qo'llanganiga alohida ahamiyat qaratish lozim. "Doston qahramonlari o'n olti urug' Qo'ng'iro't eli, Boysun-Qo'ng'iro't diyori bilan uzviy

bog‘langanlar. Ular qayerda bo‘lmasinlar, shu el, shu diyorning g‘am-alamiga sherik bo‘ladilar, shu el, shu diyor sog‘inchi bilan yashaydilar”. Dostonda eng ko‘p qo‘llangan so‘zlardan – qo‘ng‘irotlar, aniqrog‘i, *Boysari, Barchin, Boybo‘ri*, keyingisi qalmoqlar, aniqrog‘i *Qalmoqshoh, Surxayil, Toychixon* va boshqa personajlar tomonidan *o‘zbeklar* deb atalgan hamda makur doston matnida o‘zbek etnonimi *o‘zbek, o‘zbek* singari fonetik variantlarda uchrashi aniqlangan:

“Surxayil maston Qalmoqshohga qarab, bir so‘z aytib turgan ekan:

Shohim, senga arzim bayon qilayin,  
Kattamsan-da, bir gap keldi so‘rayin,  
Chilbir cho‘lni tomosha qip kelayin.

**O‘zbeklar** mazgili qanday, ko‘rayin”[3].

“Qorajon mahramlariga aytdi: – Bir nechang jahonni sayil etib yurgan, bir nechang ro‘zg‘or ko‘rgan, bir nechang jahongashta ham bo‘lgan, biz o‘zbekka kuyov bo‘ldik, o‘zbeki rasm qilib borayik, o‘zbekning kuyovi ne tartib bo‘ladi ekan, hech qaysing ko‘ribmiding?”

“Kanizdan bu so‘zni eshitib, Ko‘kaman bir so‘z deb turgan ekan:

Arzim eshit, **o‘zbek** qizi,  
Aqlimdolar jodu ko‘zi.

Yoki: Bilgin, Ko‘kamanning ko‘ngli qabardi.

Agar bilsang, alplar xabar topadi,  
Ot o‘ynatib, bari yig‘ilib keladi,  
Qora kunni **o‘zbek**larga soladi,  
**O‘zbekning** qo‘lidan nima keladi?!”

Qo‘ng‘irot urug‘ining tarqalish hududi geografik nuqtayi nazardan ancha keng bo‘lib, bu holat doston matnida quyidagicha aks ettirilgan:

“Borayotgan Boysin-Qo‘ng‘irot to‘rasi,  
Boshida bor edi zardan jig‘asi,  
Yoz bo‘lsa yaylovi **Amu** yoqasi,  
Musofir bo‘p **Qalmoq** ketib boradi”[4].

O‘zbek urug‘larining yashash hududlari orasida Amudaryo bo‘yidagi yerlar va Orol dengizi atrofidagi mintaqalar mavjud bo‘lgan. “O‘zbek, qoraqalpoq, qozoq va boshqalarda eng eski urug‘lardan biri bo‘lgan *qo‘ng‘irot*ni tasvir etgan “Alpomish” O‘rta Osiyoda yashovchi (o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq kabi) xalqlarning og‘zaki adabiyotiga kirgan va ular o‘rtasidagi o‘rtoq dostonidir[5].

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).**  
O‘zbeklar, qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar,

qoraqalpoqlar har biri “Alpomish”ni o‘z dostoni sifatida o‘qiydilar, sevadilar”. Shu nuqtai nazardan qaraganda, “Alpomish” dostoni o‘zbek xalq og‘zaki ijodining yuksak namunasi bo‘lishi bilan birga, umumturkiy epik an‘ananing yadroviiy asaridir. Uning turli turkiy xalqlar orasida bir vaqtning o‘zida yashab kelayotgani dostonning kuchli madaniy rezonansga ega ekanligini, millatlararo madaniy almashinuvda ko‘prik vazifasini bajarayotganini ko‘rsatadi.

“Alpomish” dostoni o‘zbek xalqining boy madaniy merosi sifatida milliy marosimlarning lingvomadaniy xususiyatlarini yorqin aks ettiradi. Dostonda uchraydigan marosimlar – to‘y, unashirish, mehmondo‘stlik, jangga kuzatish va boshqa urf-odatlar nafaqat ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy qismi, balki xalqning qadriyatlarini, dunyoqarashi va axloqiy me‘yorlarini ifodalovchi vosita hisoblanadi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ushbu marosimlar bilan bog‘liq leksik birliklar va birikmalar milliy koloritni saqlagan holda, o‘zbek xalqining tarixiy tajribasi, e‘tiqodi va estetik qarashlarini til orqali namoyon etadi. Xususan, marosimlarga oid terminlar, iboralar va ramziy ifodalar lingvomadaniy axborotni uzatuvchi muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, “Alpomish” dostonidagi marosimlar til va madaniyatning uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi. Ular orqali xalqning qadimiy an‘analari, ijtimoiy munosabatlari va milliy identiteti shakllanib, avloddan-avlodga yetkazilib kelinadi.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

#### (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Ma‘murov Q. “Alpomish”. – Toshkent: Zeboprint, 2023. – 380 b.
2. Бархударов Л. С. Язык и перевод. М, 1975. – 267 с.
3. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tiliniig leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. – B. 18.
4. Mualliflar jamoasi. O‘zbyek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – 175 b.
5. Madayev O. *Alpomish*. – Toshkent: Ma‘naviyat, 1999. – B.64.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Moskva: Rus tili, 1981. 2 jild. – B. 370.
7. Якобсон Р. Избранные работы. М., 1985. – 554 с.

<i>Shrazaddinova Amina Aleuatdinovna</i>	MENTALITET TUSHUNCHASINING GNOSEOLOGIK ASPEKTI	360
<i>Sapayev G'ulomjon Baxtiyarovich</i>	BOBOJON SANOIY ASARLARIDA OLAM VA ODAM TO'G'RISIDA	376
<i>Abdullayev Temur Bobir o'g'li</i>	TAFAKKUR USLUBI SHAKLLANISHINING GNOSEOLOGIK VA ONTOLOGIK ASOSLARI	390
<i>Eronov Samarbek Qurbonnazarovich</i>	RAQAMLI SAVODXONLIK: YOSHLAR KELAJAGI UCHUN STRATEGIK MUHIM OMIL 393	393
<i>Ko'lbayevaMeerim, Arziyev Ruslan</i>	IJTIMOIIY FIKR VA ZAMONAVIY MEDIAMARKAZLAR	404
<b>10.00.00 - "FILOLOGIYA"</b>		
<i>Normurodova Mexruza</i>	JAMOA VA AYRIM ODAMLARGA BO'LGAN MUNOSABATLARNI IFODALOVCHI XARAKTER XUSUSIYATLARI	15
<i>Buriyeva Aziza Qilich qizi</i>	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KAYFIYAT MAZMUNLI TIL BIRLIKLARINING MUALLIF IDIOLEKTIDA TUTGAN O'RNI	18
<i>Ruziyeva Nigora Sapar qizi, Shavkiyeva Mavluda Muxiddinovna</i>	JAHON TILSHUNOSLIGIDA METAFORALARNI MATN ASOSIDA TADQIQ ETILISHI	24
<i>Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna</i>	"ALPOMISH" DOSTONIDA ONOMASTIK LEKSIKANING IFODALANISHI	27
<i>Shodiyeva Shoxida Inatovna</i>	IBORALARDA "VATAN" KONSEPTI REPREZENTATSIYASI	33
<i>Meliqulova Madina Xikmatovna</i>	TAKSONOMIYA TUSHUNCHASI VA UNING TILSHUNOSLIKDAGI QO'LLANILISHI	37
<i>Raxmatova Shoxista Maxmatkobilovna</i>	РОЛЬ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ В ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКУ СПЕЦИАЛЬНОСТИ	40
<i>Uroqova Dildora Ibragimovna</i>	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MEBEL NOMLARINING DERIVATSION XUSUSIYATLARI	43
<i>Xolmatova Guzal Bahodirovna, Melikulova Madina Xikmatovna</i>	O'ZBEK TILIDA YUZAGA KELGAN IJTIMOIIY ERGONIMLAR: STRUKTURAVIY VA SEMANTIK TAHLIL	46
<i>Bekniyazov Qonisbay Isakovich</i>	N.A. BASKAKOVTIŃ QARAQALPAQ TIL BILIMIN RAWAJLANDIRIWǴA QOSQAN ǄLESLERI	49
<i>Yuldashev Doniyor Taxirovich, Tillayeva Muyassar Batirovna</i>	ILMGA BAXSHIDA UMR SALMOG'I	53
<i>Yusupova Kamola Qobiljon qizi</i>	REKLAMA MATNIDA IMPERATIVLIKNING ANTROIPOSENTRIK TABIATI VA PRAGMALINGVISTIK TALQINI	58
<i>Джуманиязова Луиза Султонбоевна</i>	ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОВЕРИЙ И ПРИМЕТ, СВЯЗАННЫХ С ДНЯМИ НЕДЕЛИ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ	62
<i>Quratboyeva Gulandom</i>	ASRLARGA TATIGULIK DO'STLIK	71
<i>Алиева Айше Эдемовна</i>	К ВОПРОСУ О МЕТОДИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОСИСТЕМЕ	81
<i>Narzulloyeva Maftuna Nusratillo qizi</i>	MAKTUB JANRINING O'ZBEK ADABIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI	85
<i>Sattorova Maftuna Shavkatovna</i>	ANVAR OBIDJON ASARLARIDA FOLKLOR ELEMENTLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI	88
<i>Allamberganova Guljaxon, Usmanova Aysuluv</i>	QORAQALPOQ MAQOL VA MATALLARIDA OZIQ-OVQAT ATAMALARINING QO'LLANILISHI	92
<i>Eshonqulova Shahnoza Baxtiyor qizi</i>	MIRZO SIDDIQ FANO TURKIY DEVONIDAGI G'AZALLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI 100	100
<i>Turdiyoyeva Dildora Bekmirza qizi</i>	FE'L FRAZEMALARINING TARJIMADA BERILISHI VA PRAGMATIK YO'QOTISHLAR	106